



KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

Yusupova Rayhona
Salimova Oydin

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Yusupovarayhona@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu matnda korreksion pedagogika (defektologiya) tushunchasi, uning vazifalari, asosiy yo'nalishlari va anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy ishlar ilmiy tahlil qilinadi. Korreksion pedagogika rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiyalashni tashkil etish, ularning psixofiziologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Matnda surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya kabi sohalar, korreksiya, kompensatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya va adaptatsiya jarayonlari tushuntiriladi. Shuningdek, anomal bolalar bilan pedagogik ishlarning nazariy va amaliy jihatlari, ularning rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish va ijtimoiy hayotga moslashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Korreksion pedagogika, defektologiy, anomal bolalar, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, korreksiya, kompensatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, ta'lim va tarbiya metodlari

Kirish: Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus - nuqson, kamchilik, logos - fan, ta'limot) - rivojlanishda jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Korreksion pedagogikaning quyidagi sohalar mavjud: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.



Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi: rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash; differensial o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish; anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish; rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish; bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish; anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik choratadbirlar tizimini ishlab chiqish; anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogikaning quyidagi kategoriyalari mavjud:

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqish vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda faqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi dan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarda sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» - o'zini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'zini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira



imkoniyatlariga tayanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» - layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunda anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayot va mehnatga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) - anomal bolalaming individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi. Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish - murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalaming rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

Bolalaming rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim sharoitida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalaming umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashning zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi



kamchiliklarni yo‘qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korrektсион-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo‘naltirilgan bo‘lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o‘zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksiон-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o‘zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual - shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat. Korrektсион-rivojlantiruvchi ta‘lim o‘qishda va maktabda anomal bolalarga o‘z vaqtida malakali yordam ko‘rsatishni ta‘minlovchi differensial ta‘lim tizimi bo‘lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o‘qishdagi kamchiliklarni yo‘qotish, zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatishdir.

Xulosa: Korrektсион pedagogika (defektologiya) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo‘lgan bolalarni maxsus, individual metodlar orqali o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan ilmiy fan sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash, ularni tuzatish va ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan. Korrektсион pedagogikaning asosiy sohaları – surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya – bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, korreksiya, kompensatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya va adaptatsiya jarayonlari bolalarning psixofiziologik va ijtimoiy rivojlanishini yaxshilashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, korrektсион-tarbiyaviy ishlar bolalarning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, qobiliyatlarini oshirish va ularni samarali ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadaliev, M. (2010). Korrektсион pedagogika asoslari. Toshkent: Fan.
2. Berezina, T. A. (2008). Defektologiya: nazariya va amaliyot. Moskva: Prosveshchenie.
3. Voronova, N. V. (2015). Anomal bolalar bilan ishlash metodikasi. Moskva: Akademiya.
4. Islomova, G. (2012). Maxsus pedagogika va tarbiya. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Rakhimova, Sh. (2018). Surdo-, tiflo- va logopedik pedagogika. Toshkent: Sharq.



6. Solieva, L. (2016). Korreksiya va kompensatsiya metodlari. Toshkent: Fan va Ta'lim.
7. Zinchenko, V. P. (2009). Psixofiziologik xususiyatlar va anomal bolalar. Moskva: Nauka.